

XIII-XIV ASRNING BOSHLARIDA MOVAROUNNAXRDAGI IJTIMOIIY- MA'DANIY HAYOTNING A.NASAFIY TALIMOTIGA TA'SIRI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15715701>

Xasanova Shohida Sadriddinovna

Alfragan universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası

2- bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Aziziddin Nasafiyning falsafiy ta'limotiga ta'siri mutafakkir yashagan va faylasuf sifatida shakllangan davr tarixiylik va analiz sintez usullaridan foydalanib, tasavvufshunos faylasuflar goyalari bilan uyg'unligiga urg'u berilgan.*

Kalit so'zlar: *Tasavvuf, shariat, vahdat ul vujud, borliq, bilish, komil inson. tanosux, xulul, ittixod, ayoni sobita, ashyoi sobita, haqoyiqi sobita.*

Kirish

XIII asr Sharq xalqlari ma'naviyati va tafakkuri tarixida alohida ўrin egallaydi. Bu davrga kелиб, калом илми, фалсафа ва тасаввуф камол топди. Натижада, ҳар учала соҳани бирлаштирган ажойиб олимлар ва мутафаккир адиблар етишиб чиқди. Ана шундай мутафаккирлардан бири ўзининг асарлари билан тасаввуф фалсафасига сезиларли таъсир кўрсатган, комил инсон назариётчиси, юксак ахлоқий фикрлар муаллифи, атоқли ватандошимиз Азизиддин ибн Муҳаммад ан-Насафийдир. Мутафаккирнинг ижодини чуқурроқ ўрганиш, фалсафий қарашларининг мазмун-моҳиятини англаш, олами суғро ва олами кубро борлиғи, инсон камолотига оид қарашлари ва бугунги кунда баркамол авлодни тарбиялашда комил инсон масаласини диққат билан ўрганиб чиқиш бугунги кун талабига тўла ҳамоҳанг бўлган долзарб вазифалардандир. инсон ахлоқ-одоби акс эттирилган таълимотларни ўрганиш глобал ўзгаришлар даврида инсоннинг ўз моҳиятини англаб олишига самарали, тўғри йўл кўрсата оладиган билим ва кўникма бера олади.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya.

Misrlik tadqiqotchi doktor Abdulloh Saadning “O‘rta Osiyo olimlari qomusi”, deb nomlangan kitobida nomlari zikr etilgan mashhur kishilar orasida “Nasafiy” taxallusi bilan tarixda nom qoldirgan kishilardan 22 tasi to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar berilgan [1,2]. Shulardan biri - so‘fiylik ta’limoti rivojida muhim rol o‘ynagan ilmiy asarlar muallifi Aziziddin Nasafiydir. Aziziddin Nasafiy haqidagi birinchi tarixiy manba “Riyozul Orifin”[1,3] asari bo‘lib, unda ba’zi noaniqliklar mavjud. Aziziddin Nasafiy Yevropada sharq mutafakkirlaridan biri sifatida o‘rganildi. 1625 yilda uning asari lotin tiliga tarjima qilindi[1,4]. Yevropalik fransuz tadqiqotchisi Palmer Ye.N.[1,5]. Aziziddin Nasafiyning asarlarini tadqiq

qiladi. Yana fransuz tadqiqotchisi Meridjan Mole Nasafiyning “Insoni komil” (“Komil inson”) asarining kirish qismida Aziziddin Nasafiyning hayoti va asarlari haqida qisqacha ma’lumot keltiradi[1,6].

Eron tadqiqotchilaridan biri Abulhusayn Zarrinko‘b “Jo‘stuju dar tasavvufe Eron” (“Eron tasavvufini izlab”) nomli asarida Aziziddin Nasafiy haqida ba’zi ma’lumotlarni keltiradi. Ahmad Mahdaviy Domg‘oniyning tadqiqotlari asosida allomaning “Kashf al-haqoyiq” (“Haqiqatlarning ochilishi”) kitobi nashr qilindi[1,7].

1970 yilda Sh.Shukurova Aziziddin Nasafiyning “Zubdat al-haqoyiq” (“Haqiqatlar qaymog‘i”)[1,8] asarini rus tiliga tarjima qiladi. A.E. Bertelsning shu asar asosida ““Afoq va anfus”[1,9] mavzusida besh falsafiy risola” kitobi nashr qilingan.

Taniqli olim, professor Najiddin Komilov mutasavvifning “Zubdat al-haqoyiq”[1,10] asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Har qanday metod ma’lum nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. Ushbu maqolada tarixiylik, analiz-sintez metodlaridan foydalandik.

Muhokama va natijalar.

Aziziddin Nasafiy islom dini ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarini egallagan davrda yashagan. Tabiiyki, bu din mutafakkir dunyoqarashining shakllanishiga sezilarli ta’sir qilgan. Ayni vaqtda musulmon e’tiqodi asosida vujudga kelgan boshqa diniy va falsafiy oqimlar, jumladan, kalom, mashshoiyunlik, so‘fizm, ismoiliya kabilar Aziziddin Nasafiy tanlagan bilish yo‘lini ko‘p jihatdan belgilab bergan. Bu davr diniy–falsafiy ta’limotlarining mutafakkir dunyoqarashiga ta’sir qilishini ta’riflash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Я’ni, Aziziddin Nasafiy Qur’on va hadislarni yaxshi bilgan va o‘zining barcha asarlarida ulardan iqtibos keltirgan. U shuningdek islomning boshqa oqimlari va ularning ziddiyatlari sabablari haqida etarlicha tasavvurga ega bo‘lgan. Xususan, bu masalalarga «Kashf ul-haqoyiq» asarining “Bayon ul kitob” bobida e’tibor qaratadi[2,1] Avvalo, payg‘ambar vafotidan keyingi davrdagi turli islom oqimlarining ziddiyatlariga munosabat bildiradi va Olloh rasulining so‘zlarini keltiradi: «O‘limimdan so‘ng izdoshlarim 73 firqaga bo‘linadi». U sunniylikning «Hanafiya» va «Shofeiya» mazhabi vakillari bo‘lgan mutafakkirlar Abu Mansur Moturidiy va Muhammad G‘azzoliy, shuningdek «shialik» oqimi vakili bo‘lgan Abujafar Tusiydan iqtibos keltiradi, ularning qarashlaridagi tafovutlarni ko‘rsatib beradi[2,2]. Aziziddin Nasafiy turli oqimlar ziddiyatlari tahlilidan so‘ng ta’kidlaydiki, zamondoshlari Fors mintaqasida yuzlab oqimlar borligini aytishsa ham, shunga qaramasdan ularning vakillari Qur’onni asosiy manba deb bilishadi. Biroq ulardan hech biri bu savolga javob bera olmaydi: agar bu mintaqada 100 ta oqim bo‘lsa, payg‘ambar aytib ketgan 73 ta oqimdan boshqa qancha mazhablar bor. Agar payg‘ambardan qolgan hadis rost bo‘lsa, unda buni aniqlash kerak bo‘ladi, agar noto‘g‘ri bo‘lsa,

bu 100 ta mazxabning asosi 4 qismdan iboratligini tan olish lozim: tanosux, xulul, ittixod va vahdat.

Bu to'rt ta'limotni o'xshash va farqli jihatlarini puxta o'rganib va tadqiq qilgandan so'ng Nasafiy ko'plab islomiy ta'limotlarning ziddiyatlari sababi ularning quyidagi kelishmovchiligida degan hulosaga keladi: «Turli mazxablarning soni hech kimga ma'lum emas, demak bu ularning ixtilofiga olib keladi»[2,3]. Ta'kidlash lozimki, Aziziddin Nasafiy diniy dunyoqarashni haqiqiy kuch deb tan olgan, ziddiyatlar sababini esa e'tiqod, hudud va Olloxni tan olishdagi tafovutlarda ko'rgan: «Va nihoyat Olamni yaratuvchi tangri borligini va hammasi uning sharofati bilan yaralganini bildik. Va har bir kimsa Olloxni anglashda o'zining qo'rquv kuchi va taqqoslash qobiliyati bilan, eshitilgan dalillar asosida muayyan hulosaga keldi». Keltirilgan misolda Nasafiy turli mazxab vakillari Olloxni bilashga nisbatan o'zlarining biryoqlama qarashlari bilan yondashishi, Ollox esa erishib bo'lmas narsa o'zida kabi diqqat markazidan chetda qolganini ko'rsatishni hoxlagan. Aziziddin Nasafiy hulosalarini tushunish uchun nemis faylasufi I.Kantning «narsa o'zida» va xudoning transendentligi g'oyasini tasavvur qilish kerak bo'ladi.

Aziziddin Nasafiy dunyoqarashi shakllanishining boshqa omili islom dinining diniy-falsafiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan so'fizm ta'limoti sanaladi. So'fizm vakillari o'z diqqatini Ollox mavjudligini isbotlashga emas, uni gnoseologik anglashga, ma'rifatga, inson borlig'i muammolarini va antropologik masalalarni tadqiq qilishga qaratadi. Garchi so'fizm Qur'on va hadislar asosida vujudga kelgan bo'lsada, shunga qaramasdan, uning vujudga kelishi va rivojlanishida zardushtiylik, xristianlik, moniylikning falsafiy-diniy ta'limotlari va neoplatonchilik falsafasi, shuningdek hind mistitsizmining alohida ta'limotlari sezilarli ta'sirga ega. Ta'kidlash mumkinki, so'fizmning shakllanish davrini umumiy ko'rinishda ikki bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchisi – VIII- asrlardan XIII-asrlargacha. Bu davrda so'fizm mohiyati zohidlik bilan belgilangan amaliy mazmunga ega bo'lgan. So'fizm izdoshlari bu davrda o'z ta'limotlarini yaratishgan, ko'proq bu oqimning nazariy jihatlarini targ'iboti va amaliy muammolari, shayxlarning hayoti haqida hikoyalar, ularning so'fizmdagi o'rni, Olloxga yaqinligi va u bilan aloqasini o'rganish bilan shug'ullanishgan. Shunisi diqqatga sazovorki, ulardan birinchi bo'lib Zunnun Misriy tarkidunyochilik bilan bir vaqtda so'fizmgaga neoplatonchilik falsafasi elementlarini olib kirgan. Junayd Bag'dodiy uning ta'limotini to'g'rilagan va tartibga solgan. Boyazid Bistomiy o'z mulohazalari bilan unga xitob qilgan: – «Subxoni, subxoni. Mo a'zamu sha'ni» (Vasf etildim, qanchalik ko'klarga ko'tarildim. Men Olloxman va mendan boshqa Ollox yo'q), Mansur Xalloy esa «Men Haqman» (ya'ni Ollox) xitobi bilan unga qo'shilgan, Ollox va borliq birligini tasdiqlab, panteistik ta'limotni yaratgan. Bu davrda so'fizmning keyingi taniqli vakillari Abdulxasan Xarkoniy, Abusaid Abulxayr, Bobo Toxir Uryon, Abula'lo Dakkok, Abulisxoq Qozuruniy, Abulfazl Saraxsiy, Abduraxmon Sullamiy, Abulkosim Jurjoni, Axmad Fazliy, Aynulquzzot Xamadoni, Axmad

Jomiy, Fariduddin Attor.

Soʻfizm rivojlanish tarixining ikkinchi bosqichi moʻgʻul-tatarlarning Eron va Xurosonga bosqini, madaniyat tanazzuli, obod shaxarlarning vayron boʻlishi bilan bogʻliq. Bu davrda fors madaniyatining beshigi boʻlgan Soʻgʻd, Xorazm, Baqtriya va Xuroson eng koʻp zarar koʻrdi. Bu joylarning koʻpchilik aholisi oʻldirildi, aholining bir qismi Hindistonga, boshqa qismi Iroqqa ketdi. Biroq, moʻgʻullarning vayronkor bosqini bu hududda yashovchi xalqlarning maʼnaviy falsafiy anʼanalarini toʻliq yoʻq qila olmadi. Sohasining etuk vakillari bu xalqlarning falsafiy va ijtimoiy oʻziga hosligini saklab qolishga koʻmak berishdi va shunday sharoitda ilgʻor fikrlarni ifodalashning muhim vositasi va xalq orzu umidlarining ifodachisi boʻlgan islomning mistik yoʻnalishi – soʻfizmning vujudga kelishi va rivojlanishida namoyon boʻldi.

XIII asrdan boshlab soʻfizmda falsafiy yoʻnalishda ustun boʻla boshladi. Ularning asarlarida fundamental falsafaning tushunchalari qoʻllanildi, borliq, haqiqat, Xudo, komil inson, azal va abad, olam abadiy mavjudmi yoki Xudo tomonidan yaratilganmi, iroda, taqdir kabi tasavvuf istilohlari tushuntirildi. Tasavvufning nazariy-falsafiy asoslanishi Shayx Akbar nomi bilan maʼlum boʻlgan Muhiyiddin ibn Arabiy nomi bilan chambarchas bogʻliq. U nazariy soʻfizmning asoschisi sanaladi. Bahslarda falsafiy metoddan foydalanish bilan soʻfizmgaga falsafiy shakl berdi. Uni amaliy shuningdek, nazariy-falsafiy soʻfizmning asoschisi deb hisoblash mumkin, aynan Shayx Akbarning ishlari bu oqim rivojining nazariy asosi boʻlib hizmat qildi. Uning oʻlimidan soʻng izdoshlari ancha murakkab boʻlgan diniy-falsafiy taʼlimotining Olloxning birligi, viloyat, ilohiy bashorat kabi asosiy gʻoyalar ishlab chiqilgan alohida jihatlarini sharhlashga urinishgan.

Taʼkidlash lozimki, uning gʻoyalarning bilvosita va bevosita davomchilari qatoriga Ibn Arabiy qarashlarining chin targʻibotchilari boʻlgan Shayx Saʼdiddin Qazvinii, Saʼdiddin Humaviy, Najmiddin Iroqiy, Shayx Muhiyiddin Junaydiy, Kamoliddin Abdulrazzoqlarni kiritish mumkin. Aziziddin Nasafiy taʼlimoti soʻfizm rivojining aynan ikkinchi bosqichiga mansub. Uning asarlarida nazariy soʻfizmning postulatlarini asoslangan, uning kategoriyalari peripatetiklar falsafasining atamalarini bilan aralashib ketgan. Qayd qilish kerakki, Aziziddin Nasafiy oʻz asarlarida bir necha marta oʻzini Saʼdiddin Xumaviyning oʻquvchisi deb atagan. Ungacha Nasafiy Najmiddin Kubro nomi bilan maʼlum boʻlgan, XII-XIII asrlarning mashhur mutafakkiri Abuljanob Najmiddin Muxammad ibn Umar Xivaqiyning izdoshi sanalgan. Bundan shunday hulosa chiqadiki, Aziziddin XIII asrda Movarounnahr va Xurosonda tarqalgan soʻfiylik oqimining tarafdori boʻlgan.

Xulosa.

Shunday qilib, yuqorida keltirilganlardan hulosa qilib aytish mumkinki, Aziziddin Nasafiy dunyoqarashi shakllanishi asosi boʻlib, eng avvalo:

- Davr dunyoqarashining muhim manbalari boʻlgan, Qurʼon va hadislar, uning asarlari mazmunidan sezilganidek, Aziziddin Nasafiy qarashlari

shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. - Aziziddin Nasafiy dunyoqarashi shakllanishida birmuncha muhim bo'lgan manbalar sharq peripatetizmi ta'limoti sanaladi (Ibn Sino, Forobiy, G'azzoliy).

- Olamni anglashda u ko'proq nur falsafasi vakillari qarashlariga asoslangan, bu ta'limotga ishonchining tasdig'i sifatida, ularni haqiqat jamoasi deb atagan. Komil insonni bilish masalasida u zardushtiylikning ahloqiy konsepsiyasiga tayangan, undagi uch asosiy prinsip bilan birgalikda insonning o'z-o'zini anglashini alohida belgilagan.

- Nasafiy dunyoqarashi shakllanishining mistiy-so'fiylik manbalari kubraviya oqimi bilan bog'langan, so'fizmning bu tarmog'i XII-XIV asrlarda Movarounnahr va Hurosonda tarqalgan. Aziziddin Nasafiy dunyoqarashi nazariy so'fizmga yaqin, bu jihatdan u Ibn Arabiyning olamning birligi (panteizm) ta'limotiga ergashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Nasafiy Azizuddin. Kitob-al-inson-ul-komil. - Tehron: Toxuriy, 2000 - 554 b.
3. . Nasafiy Azizuddin. Maqsad-ul-aqso. // Mavlono Abduraxmon Jomiy. Ganji orifon. - Tehron «Ganjina», 1993 y.- 440 b.
4. Nasafiy Azizuddin. Zubdat-ul-haqoyiq. Mavlono Abduraxmon Jomiy. Ganji orifon. - Tehron «Ganjina», 1993 - 440
5. Насафий Азизуддин. Кашф-ул-хақойиқ. - Техрон, 1980 й.- 340 б. Ибн Араби. Футухот-ул-маккия. // Средневековая арабская философия.- Москва: Мысл, 1998 - 120.
6. Narziev Z. Aziziddin Nasafiyning borliq haqidagi qarashlari. Falsafa va tasavvuf: ma'rifiy dunyoqarashni shakllantirish muammolari va echimlari. mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari to'plami. Buxoro:2019.
7. Komilov N. Tasavvuf. - T.: Movarounnahr-O'zbekiston, 2009. - B. 448.
8. Mamatov M.A. Tasavvuf ta'limotining tarixiy-falsafiy mohiyati. - T.: Xalqaro islom akademiyasi. Nashriyot-matbaa birlashmasi, 2018. - B. 2.
9. Суфизм в контексте мусульманской культуры. - М.: Наука, 1989. - С. 331.